

Farrux ABDUSAMADOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:abdusamadov@mail.ru

Tarix fanlari nomzodi, dotsent S.Valiyev taqrizi asosida

THE PROCESS OF FORMING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL BASIS OF HOTELS

Annotation

The article analyzes the tendency of formation processes of the organizational and legal frameworks of the tourism industry, especially the hotel service, in the years of independence in Uzbekistan.

Key words: hotel, tourism, service, economy, entrepreneurship, forms of ownership, legal basis.

ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ ГОСТИНИЦ

Аннотация

В статье анализируются тенденции формирования организационно-правовой базы туристической отрасли, особенно гостиничного сервиса, в годы независимости Узбекистана.

Ключевые слова: гостиница, туризм, сервис, экономика, предпринимательство, формы собственности, правовая основа.

MEHMONXONALAR FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida turizm sohasi xususan mehmonxona xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllanishi jarayonlari tendensiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mehmonxona, turizm, xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot, tadbirkorlik, mulkchilik shakllari, huquqiy asos.

Kirish. Mehmonxona iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish tarmog'iga kiradi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning erkinlashuvi mehmonxonalarini ham bosqichma-bosqich xususiyashtirishga asos bo'ldi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan mehmonxonalar tadbirkorlar boshqaruviga o'tdi. O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona kabi yirik shaharlar markazlarida xususiy mehmonxonalarini ochishga bo'lgan harakatlar sezildi. Nafaqat mazkur hududlar, balki Andijon, Namangan, Toshkent viloyati kabi aholisi ko'p bo'lgan viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda boshqa viloyatlar markazlarida ham mehmonxonalar soni oshib bordi.

Bozor sharoitida mulkchilik shakllarining tan olinishi va davlat tomonidan kafolatlanishi mehmonxonaga o'xshash xizmat ko'rsatish tarmog'iga xususiy tadbirkorlarni jalb etishning huquqiy zaminini yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bunday kafolat quyidagicha ifodalandi: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin" [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Teng huquqli tashkiliy-huquqiy shart-sharoit raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Xizmat ko'rsatishdan kelgan daromadning oshib borishi mazkur sohadagi infratuzilmani zamonga mos rivojlantirishga yo'l ochib berdi. Vaholanki, mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisi 20 mlndan 37 mlnga o'sgani hisobidan, ichki ehtiyojlarni ta'minlash uchun arzon va qulay mehmonxonalarga talab oshib bordi. Ichki turizm va sayyohlik aholining turmush sharoitlaridan kelib chiqib rivojlandi. Shuning uchun mamlakat fuqarolarining talablariga mos bo'lgan mehmonxonalarini barpo etish uchun ham xususiy mulk har jihatdan qo'llab-quvvatlanishi zarur edi.

Ta'kidlash lozimki, tadbirkor uzoq yillik kafolatni talab qiladi. Chunki yirik mablag' evaziga barpo etiladigan mulkni uzoq vaqt tasarruf qilishga ishonch bo'lmasa, bunga investitsiya kiritish ehtimoli pasayib ketadi. Ana shunday ehtiyoj tufayli davlat imkon darajada mulkdorni o'ziga tegishli mulkidan erkin foydalanish kafolatini mustahkamlab bordi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart" [2] degan qoida mustahkamlab qo'yildi.

Tadbirkor o'z mulkini tasarruf etishda ekologiyaga ziyon yetkazmasligi, fuqarolar, tashkilotlar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Huquq va erkinliklar taqdim etilishi bilan birga undan foydalanishda boshqalarning huquq va erkinliklari cheklanmasligi belgilab qo'yilmoqda. Mehmonxona va uning atrofidan foydalanishda ekologiya, fuqarolarning huquqlari, turli tashkilotlarning manfaatlarini hisobga olinadi. O'z navbatida belgilangan tartibda kommunal to'lovlar va soliqlarni o'z vaqtida to'lash, mavjud qonunchilikka rioya qilish bilan davlat oldidagi majburiyat ham ta'minlanishi zarur.

Shunday qilib, mehmonxona faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish mustaqillikning ilk yillaridan boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-447-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 20 oktabrdagi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 484-son qarori qabul qilinib, turizm, shu jumladan mehmonxonalar faoliyatini tartibga solib turadigan tashkiliy-huquqiy mexanizm yaratildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-447-son farmoni bilan O'zbekistonda Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi turizm va ekskursiyalar Respublika Kengashining, "Sputnik" Xalqaro yoshlar turizmi Byurosining "Intur-Toj" qo'shma korxonasining, respublika xo'jalik hisobidagi "Sayyohintur" birlashmasining sobiq SSSR Davlat chet el turizmi komiteti korxonalarining shular negizida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi O'zbekiston hududida turizm sohasidagi yagona siyosat ishlab chiqilib, amalga oshirilishini ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh organ deb e'lon qilindi.

"O'zbekturizm" faoliyatining bosh vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

turizm sohasida respublikaning yagona siyosatini amalga oshirish;
turizmning xo‘jalik tarmoqlari majmuini rivojlantirish;
turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni hamda shart-sharoitlarni vujudga keltirish;
turistik markazlaridan oqilona foydalanish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish yo‘li bilan zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish;
ekskursiyalar uchun tarixiy me‘morchilik inshootlarini ta‘mirlash;
yirik ajnabiy firmalar va kompaniyalar bilan birga qo‘shma turistik xizmatlar va korxonalarni tashkil etish;
jahon bozorida talab qilinayotgan yangi turistik marshrutlar va xizmatlarning turlarini tatbiq qilish;
turizm tarmoqlari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
O‘zbekiston hududida ish yurituvchi barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga turizm sohasida shug‘ullanish huquqini beradigan sertifikatlarni topshirish hamda ular faoliyatini nazorat qilish;
tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
o‘zining ishlab chiqarish va tijorat tuzilmasini tashkil qilish;
chet ellardagi o‘z vakolatxonalarini va byurolari orqali respublikaning turizm sohasidagi g‘oyat katta imkoniyatlarini reklama qilish” [3].

Turizm sohasida yagona muvofiqlashtiruvchi organning qaytadan tashkil etilishi respublikaning turizm salohiyatini oshirish borasidagi islohotlari uchun muhim qadam bo‘ldi. Chunki mustaqillikning ilk yillarida davlat hokimiyatidagi barcha muassasalar yangicha formatda tashkil etildi. Bu paytda bozor munosabatlariga o‘tilayotgan, davlat o‘z tasarrufidagi mulklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirayotgan davrlar edi. Biz aytmochimizki, boshqa sohalar kabi turizm, shu jumladan uning ajralmas qismi bo‘lgan mehmonxonalar ham bozor talablariga moslashishga majbur bo‘ldi. Sohani tartibga solib turadigan alohida qonunchilik tizimini shakllantirish ham mazkur ehtiyojlardan kelib chiqdi.

Xizmat ko‘rsatish sohalaridagi huquqiy munosabatlarni tartibga solib turishga xizmat qiladigan qonunchilikdan biri turizm haqidagi qonun edi. Mustaqillik yillarida ilk bor 1999 yil 20 avgustda “Turizm to‘g‘risida”gi 830-I-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Turistik faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olingan ushbu qonun 2019 yil 20 oktabrda o‘z kuchini yo‘qotdi. Lekin 20 yil davomida turizm faoliyatini, shu jumladan mehmonxonaga faoliyatini tartibga solib turish uchun asos qonun rolini bajardi.

Qonunda “turistik industriya” (turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko‘rsatishni ta‘minlovchi turli sub‘ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalarini, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui), tur (muayyan yo‘nalish bo‘yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlanirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta‘minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat), turistik xizmatlar (turistik faoliyat sub‘ektlarining joylashtirish, ovqatlanirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko‘rsatish borasidagi, shuningdek turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlari) kabi tushunchalar aniqlashtirildi [4].

Xuddi shu davrga kelib o‘tish davrining qiyin davrlari ortda qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjud bo‘lsa-da, tahlikali va iste‘mol tovarlari tanqisligi birmuncha barham topdi. Bundan tashqari, O‘zbekistonning tarixiy obidalarini va muqaddas ziyoratgohlari bilan tanishish uchun xorijiy sayyohlar oqimi faollasha boshladi. Chunki mustaqil davlat sifatida xalqaro miqyosda o‘z nufuzini topa boshladi. Shuning uchun turizm salohiyatini oshirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilindi. Jumladan, 1999 yil 15 aprelda qabul qilingan PF-2286-sonli “2005 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, sayyohlik tashkilotlari chetdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxonaga uskunalarini, sayyohlik maqsadlariga mo‘ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshinalarini to‘lashdan 3 yil muddatga ozod qilindi [5]. Ushbu dasturiy hujjat 2020 yil 28 sentabrgacha amalda bo‘ldi.

Haqiqatda ham 1999 yil turizmga e‘tibor berilishining yangi davrini boshlab berdi. Mazkur yildan boshlab turizm sohasi bo‘yicha o‘rta-maxsus va oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 2 iyuldagi “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 324-son qarori turizm bo‘yicha zamon talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta‘lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda mamlakatimizda turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi bilan birgalikda 1999 yil 1 avgustga qadar Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarkibida xalqaro turizm fakultetini, Toshkent shahar mehmonxonaga xo‘jaligi va turizm litseyi negizida Toshkent turizm kasb-hunar kollejini tashkil etish nazarda tutildi. Toshkent madaniyat instituti bakalavriyatiga turizm sohasi uchun rejalashtirilgan 80 ta qabul kvotasi (40 ta davlat grantlari va 40 ta to‘lov-kontrakt asosida) Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o‘tkazildi. Toshkent shahridagi yirik oliy ta‘lim muassasasida turizm bo‘yicha kadrlar tayyorlashni takomillashtirilishi sohani sifatli va malakali kadrlar bilan ta‘minlashga xizmat qildi.

Qaror doirasida bir qancha shaharlarda o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari barpo etish ham nazarda tutildi. Jumladan, 2000-2005 yillar mobaynida, zarur pedagogik kadrlar tayyorlanishini hisobga olgan holda, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Termiz va Shahrisabz shaharlarida turizmga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari tashkil etish rejasini 1999 yilning 1 sentabriga qadar tuzish va bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutildi. O‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari barpo etilishi har jihatdan qulay hisoblangan. Chunki turizm sohasiga tezkor va moslashuvchan kadrlar tayyorlashda kasb-hunar kollejlari imkoniyatlari yetarli edi.

Shu bilan birgalikda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining xalqaro turizm fakultetini va Toshkent turizm kasb-hunar kollejini malakali pedagogik kadrlar bilan ta‘minlash, ta‘lim sohasidagi xalqaro aloqalarga tayangan holda, mamlakatimizga xorijdan yuqori malakali pedagoglarni muntazam ravishda taklif etish va ularni o‘qish jarayoniga jalb qilishni amalga oshirish ko‘rsatib o‘tildi.

Tahlil va natijalar. Faqat tashkiliy-institutsional o‘zgarishlar emas, balki normativ-huquqiy hujjat bilan turizm sohasidagi kadrlar tayyorlashning mazmuniga ham talablar va vazifalar ishlab chiqildi. Jumladan, bu borada 1999/2000 o‘quv yili mobaynida, turizm bo‘yicha chet eldagi nufuzli o‘quv markazlarida qo‘llanilayotgan darsliklar mazmunini o‘rganib chiqish, uni o‘zbek xalqining boy an‘ana va qadriyatlarini bilan uyg‘unlashtirgan holda, respublikada turizm yo‘nalishidagi ta‘lim muassasalari uchun zamonaviy darsliklar va o‘quv adabiyotlarini yaratish hamda nashr etishni ta‘minlash, turizm bo‘yicha tashkil

etilayotgan ta'lim muassasalarini zarur asbob-uskuna va mebellar, zamonaviy kompyuter texnikasi va chet tillarni mukammal o'qitish vositalari bilan jihozlash, xalqaro va xorijiy turistik tashkilotlar hamda yetakchi o'quv-ilmiy markazlari bilan samarali hamkorlik qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, Butunjahon turistik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan turistik dasturlarda ishtirok etishda amaliy yordam berish va faol qatnashish vazifalarini keltirish mumkin.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi ta'lim muassasalarining barchasi davlat tasarrufida ekanligidan hamda malakali kadrlarga bo'lgan talab oshib borayotganidan kelib chiqib, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi barcha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun doimiy hokimiy ekanligi nazarda tutildi [6].

So'nggi yillarda turizmga e'tibor yangi bosqichga ko'tarildi. Turizmni rivojlantirish sohasida tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmoni bilan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi [7].

Shuningdek, "gidlar (ekskursiya yetakchilari), kuzatib boruvchi-yo'riqchilarning xizmatlari jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslarning xodimlari tomonidan faqat ular oliy yoki o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim to'g'risidagi diplom yoxud gidlar (ekskursiya yetakchilari) yo'nalishi bo'yicha davlat namunasidagi qayta tayyorlash to'g'risidagi guvohnoma yoki O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan malaka sertifikatiga olgandan keyin amalga oshirilishi mumkin"ligi qat'iy ko'rsatib o'tildi.

Sohani rivojlantirish maqsadida turizm sohasida xalqaro darajadagi kadrlar tayyorlash ko'zda tutildi. Shu vaqtga qadar turizm yo'nalishida oliy ma'lumotli kadrlar muayyan oliy ta'lim muassasalari tarkibida tayyorlangan. Alohida ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasi bo'lmagan. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 iyundagi "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida" PQ-3815-son qarori bilan Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti ochildi.

Bunday ko'zlangan maqsad "xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy ishlarni olib borish bo'yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro'yobga chiqarish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish" hisoblanadi [8].

Turizm sohasi sport va madaniy soha bilan uzviylikka ega. Jumladan, sport turizm bilan birga rivojlangan. Turizmni rivojlantirishdan maqsadlardan biri ham insonlarning munosib dam olishi orqali sog'lom turmush-tarzi rivojlantirishdir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6199-son farmoni [9] hamda "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2021 yil 6 apreldagi PQ-5054-son qarori [10] bilan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, turizm va mehmonxona faoliyati davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib kelgan. Yuqoridagilardan kelib O'zbekistonda mehmonxonalar faoliyati huquqiy asoslarini yaratilishi va uning mazkur xizmat ko'rsatish turining rivojlanish jarayonini uchga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich – 1991-1998 yillar. Bu yillarda xususiy mulkni kafolatlagan va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asosiga aylangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Turizm sohasini xususiyashtirishning dastlabki bosqichi amalga oshirildi. Turizm faoliyatini muvofiqlashtiradigan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich – 1999-2015 yillar. Ushbu bosqichda turizmni rivojlantirish kompleks ravishda amalga oshirildi. "Turizm to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Turizm sohasi erkinlashtirildi, yangi avlod kadrlar tayyorlash tizimiga o'tildi, zamon talablariga mos mehmonxonalar barpo etildi. Turizm va mehmonxona xo'jaligi xizmat ko'rsatishning alohida tarmog'i sifatida rivojlandi.

Uchinchi bosqich – 2016 yildan keyingi yillar. Mehmonxonalar uchun davlat imtiyozlari faol tatbiq qilindi. Turizm bo'yicha kadrlar tayyorlovchi alohida xalqaro universitet tashkil etildi. Mehmonxonalar faoliyatida miqdor va sifat o'zgarishlari amalga oshirildi. Davlat tasarrufida bo'lgan yirik mehmonxonalar xususiyashtirildi. Uy mehmonxonalari va kempinglarga o'xshash moslashuvchan tuzilmalar yaratildi.

ADABIYOTLAR

1. "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий қонуни. 2023 йил 1 май, ЎРҚ-837-сон // <https://lex.uz/acts/6449033>
2. "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий қонуни. 2023 йил 1 май, ЎРҚ-837-сон // <https://lex.uz/acts/6449033>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 27 июлдаги "Ўзбектуризм" миллий компаниясини ташкил қилиш тўғрисида"ги ПФ-447-сон фармони (хужжат 12.12.2016 йилда ўз кучини йўқотган) // <https://lex.uz/docs/223878>
4. "Туризм тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни, 1999 йил 20 август, 830-I-сон (хужжат 20.10.2019 йилда кучини йўқотган) // <https://lex.uz/docs/75375>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 15 апрелдаги ПФ-2286-сонли "2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида"ги фармони // <https://lex.uz/docs/213701>
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 2 июль 324-сон "Ўзбекистонда туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори // <https://lex.uz/acts/594014>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сонли фармони // <https://lex.uz/docs/3077025>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ипак йўли" туризм халқаро университетини ташкил этиш тўғрисида" 28.06.2018 йилдаги ПҚ-3815-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3799075>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2021 йил 6 апрелдаги ПФ-6199-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5356705>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Туризм ва спорт вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида" 2021 йил 6 апрелдаги ПҚ-5054-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5356603>